

PAST O‘ZLASHTIRUVCHI O‘QUVCHILAR PSIXOLOGIYASI

Usmonova Shahodat Ashirovna
Qashqadaryo viloyati, G‘uzor tumani
44-maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari, o‘qishdagi qiyinchiliklarning kelib chiqish sabablari hamda ularni bartaraf etishning psixologik-pedagogik usullari yoritiladi. Shuningdek, oila, maktab va psixolog hamkorligining ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: past o‘zlashtirish, o‘quvchi psixologiyasi, motivatsiya, diqqat, qobiliyat, emotsional holat, pedagogik yondashuv, maktab psixologi

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim jarayonida past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Har bir o‘quvchining bilimni qabul qilish darajasi va o‘rganish sur‘ati turlicha bo‘lgani sababli ayrim bolalarda o‘qishdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Past o‘zlashtirishning sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Psixologik omillar, oilaviy muhit, sog‘liq holati va ta’lim jarayonidagi kamchiliklar bunga ta’sir qiladi.

Psixologik jihatdan diqqatning sustligi, xotira jarayonining zaifligi yoki o‘ziga ishonchsizlik o‘quvchining o‘zlashtirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zi hollarda o‘quvchilarda o‘qishga nisbatan motivatsiyaning pastligi kuzatiladi. Qiziqishning yo‘qligi bilim olishga bo‘lgan intilishni kamaytiradi.

Oilaviy muhit ham muhim omil hisoblanadi. Oiladagi nizolar, e’tibor yetishmasligi yoki nazoratning sustligi bolaning ruhiy holatiga va ta’limdagi muvaffaqiyatiga salbiy ta’sir qiladi. Maktabdagi psixologik muhit ham o‘quvchi rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchining qo‘polligi yoki tengdoshlar bilan muammolar bolaning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini pasaytirishi mumkin.

Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlashda individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Maqtov va kichik muvaffaqiyatlarni e’tirof etish ijobiy natija beradi.

Maktab psixologi o‘quvchilarning emotsional holatini o‘rganib, ularga psixologik yordam ko‘rsatishi kerak. Trening va maslahatlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Ota-onalar bilan hamkorlik qilish ham muhimdir. Farzandning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab-quvvatlash va uyda qulay sharoit yaratish kerak.

Shuningdek, interaktiv metodlar, o‘yin texnologiyalari va qiziqarli mashg‘ulotlardan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshiradi.

Bugungi kunda mamlakatimiz, shaxsan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan uzluksiz ta‘lim tizimini isloh qilish, uni dunyo tajribalariga asoslangan xolda takomillashtirish borasida talaygina amaliy islohatlar olib borilmoqda. Xususan, uzluksiz ta‘lim tizimining eng asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan o‘rta umumta‘lim maktablarining ishini rivojlantirish borasidagi ishlar muhimdir.

Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash o‘qituvchidan alohida sabot va mas‘uliyatni talab etadi. Shu bois bu toifa bolalar bilan shug‘ullanish uchun, avvalo, yakkama-yakka suhbat o‘tkazib, ularning qiziqishlarini aniqlash lozim. Maxsus jurnal tutilib, bolalarning o‘zlashtirishini muntazam monitoring qilib borilishi, o‘quvchilarga qiynalayotgan fanidan alohida mashg‘ulotlar daftari tuttirish kabi usullar ham samarali hisoblanadi. Shuningdek o‘quvchilardagi ijobiy o‘zgarishlar rag‘batlantirilishi muhim. Bo‘sh o‘zlashtiruvchilarning faolligini oshirish uchun ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini hamda nutqini rivojlantirish kerak.

Taniqli psixolog D.Karnegi ta‘kidlaganidek, dunyoda odamlarni nimadir qilishga undaydigan birgina usul bor. Mohiyatan bu usul odamni nimadir qilishni istashga majburlash demakdir. Mashhur amerikalik faylasuf va pedagog D.Dyuining fikriga ko‘ra, inson tabiatiga xos bo‘lgan eng asosiy intilish – bu “ahamiyatli – qadrli bo‘lish istagi”dir.

Kichik maktab yoshi davrida faoliyatni va xulq-atvorni motivlashtirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. “Bolalar nimani yaxshi ko‘rishadi va nimani istashadi?” degan savolga S.T.Shatskiy shunday javob beradi:

1. Bolalarda til topishish instinkti kuchli rivojlangan, ular bir-birlari bilan tezda tanishib oladilar – o‘yinlar, hikoyalar, o‘zaro gap sotish, lofchilik kabilar ana shunday instinkning belgilaridir.
2. Bolalar tabiatan mohir tadqiqotchi. Ulardagi tez qo‘zg‘aluvchanlik, oxiri ko‘rinmaydigan savollar, hamma narsaga tegib ko‘rish, ushlab ko‘rish, tatib ko‘rishga intilish sababi ana shunda.
3. Bolalar o‘zini ko‘rsatib turgisi keladi, o‘zi haqida, o‘z taassurotlari haqida gapirgisi, o‘rtoqlashgisi keladi. O‘z menligini tez-tez namoyish etib turishi ana shundan. Uning fantaziyalari va tasavvurlari boy bo‘ladi – bu bolalar ijodkorligi instinktidir.
4. Bolalar hech narsadan bir narsa yaratishni, qandaydir g‘ayrioddiy narsalarni to‘qib chiqarishni yaxshi ko‘rishadi.
5. Bolalarda xarakterning shakllanishida taqlidchanlik instinkti katta rol o‘ynaydi.

Shularni yaxshi tushunib olsak, tashqaridan olib kiriladigan soxta stimullarni qidirib

yurishimizga to`g`ri kelmaydi. Muayyan bir turdagi stimullarni tahlil etish uchun amerikalik professor G. Overstritning

“Inson xulq-atvoriga ta’sir ko’rsatish” deb nomlangan kitobida keltirilgan fikrlarga e’tiborni qaratsak, foydadan xoli bo’lmaydi. G. Overstritning ta’kidlashicha, xulq-atvorimiz va xatti-harakatlarimiz zamirida biz uchun eng qimmatli bo’lgan orzularimiz yotadi. Kimnidir u yoki bu ko’rinishdagi xatti-harakatlarni bajarishga undashni o`z oldigan vazifa qilib qo`yganlar uchun eng yaxshi maslahat shunday: avvalo o`z suhbatdoshingizni nimanidir qattiq istashga majbur qiling. Kimki buni uddalay olsa, butun dunyoni egallaydi, agar uddalay olmasa, yakkalanib qoladi.

Istaklarga tayaning. Bolalar nimani istashadi – bu o`qituvchining olidida turgan bosh masala bo`lib hisoblanadi. Agar biz sichqonni tutmoqchi bo`lsak, qopqonga qip-qizil bo`lib pishgan gilosni qo`ymaymiz, balki pishloq bo`lagini qo`yamiz, ya`ni bunda o`z istagimiz va ta`bimizga ko`ra emas, balki kemiruvchilarning ta`bidan kelib chiqib ish yuritimiz. Shuni mudom yodda tutishimiz va anglashimiz lozimki, faqat biz nimani istashimizgina muhim emas, balki bolalar nimani istashlari ham juda muhimdir. Uni sindirishga va qayta qurishga urinmang: u o`z xohish-istaklari uchun aybdor emas. Tarbiyaning tabiatga moslanganligi g`oyasini yodda tuting. O`qituvchining vazifasi – agar pedagogik maqsadlarga mos kelmasa, intilishlarning yo`nalishini o`zgartirish.

Napoleon Bonaparte inson psixologiyasini chuqur anglagan sarkardalardan biri sifatida askarlarni rag`batlantirishning nozik jihatlariga katta e’tibor qaratgan. U inson qalbida e’tirof etilish, qadrlanish va boshqalar orasida ajralib turish ehtiyoji kuchli ekanligini yaxshi tushungan. Shu sababli Napoleon o`z armiyasidagi askar va ofitserlarni turli unvonlar, mukofotlar va rag`batlantiruvchi so`zlar bilan tez-tez taqdirlab turgan. Rivoyatlarga ko`ra, u askarlarining ko`pchiligini ism-sharifi bilan tanigan va ularga aynan ismi bilan murojaat qilgan. Bu oddiy holatdek tuyulsa-da, inson ruhiyatiga juda katta ta’sir ko`rsatgan. Chunki har bir inson o`zining e’tibor markazida ekanligini his qilishni xohlaydi.

Psixologik jihatdan qaraganda, insonni qadrlash va uni boshqalar oldida tan olish kuchli motivatsion omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o`quvchilar bilan ishlash jarayonida maqtov va rag`batlantirishning o`rni nihoyatda katta. O`quvchi qilgan mehnati sezilganini, ustozlari tomonidan baholanganini his qilsa, unda o`ziga bo`lgan ishonch ortadi, ta`limga qiziqishi kuchayadi va yanada yaxshi natijalarga erishishga intiladi.

Biroq maqtov ham pedagogik mahorat bilan qo`llanilishi kerak. Avvalo, maqtov samimiy va tabiiy bo`lishi zarur. Sun`iy yoki faqat vazifa sifatida aytilgan iliq so`z o`quvchiga yetib bormaydi. O`quvchi ustozning haqiqiy munosabatini tez sezadi. Shuning uchun maqtov vaziyatga mos, o`z vaqtida va aniq faoliyatga qaratilgan bo`lishi muhimdir. Masalan, “Sen bugun juda yaxshi javob berding” degan umumiy

gapdan ko'ra, "Bugungi misollarni mustaqil va mantiqiy yechganing menga juda yoqdi" kabi aniq baho kuchliroq ta'sir qiladi.

Shuningdek, bajarilmagan yoki sifatsiz ishni haddan tashqari maqtash ham noto'g'ri hisoblanadi. Bu holat o'quvchida noto'g'ri tasavvur shakllantirishi mumkin. Maqtov haqiqatga asoslangan bo'lishi, bolaning kichik bo'lsa ham real yutug'ini ko'rsatib berishi kerak. Chunki o'quvchi o'z mehnatining natijasini ko'rsa, keyingi safar ham muvaffaqiyatga erishishga harakat qiladi.

Pedagogik faoliyatda tanqid ham muhim o'rin tutadi. Ammo tanqid o'quvchining shaxsiyatiga emas, uning xatti-harakati yoki ishiga qaratilishi lozim. Qo'pol, kamsituvchi yoki boshqalar oldida aytilgan tanqid bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiradi, unda qo'rquv va ichki qarshilik uyg'otadi. Aksincha, muloyim va tushuntirish asosidagi tanqid bolaning xatosini anglashiga va uni tuzatishga yordam beradi.

O'qituvchi o'quvchini ruhlantira oladigan, uning kuchli tomonlarini ko'ra biladigan va kerak paytda qo'llab-quvvatlaydigan shaxs bo'lishi kerak. Ba'zan oddiy bir iliq so'z, samimiy tabassum yoki kichik e'tirof bolaning butun kayfiyatini va ta'limga munosabatini o'zgartirib yuborishi mumkin. Shu sababli pedagogik jarayonda maqtov, rag'bat va ehtiyotkor tanqid tarbiyaning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar psixologiyasi murakkab va ko'p omilli jarayon hisoblanadi. To'g'ri psixologik-pedagogik yondashuv orqali o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish va muvaffaqiyatga erishishga yordam berish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"GI Qarori.
2. Musurmonov A. "Ta'lim-tarbiyada xalq og'zaki ijodidan foydalanish". T.: O'qituvchi, 1993.
3. Suvonov O.va boshqalar. «Pedagogik texnologiyalarni qo'llash davr taqozosi». «Xalq ta'limi», 2004 yil, № 5.
4. Ziyo.net